



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Республика Шахарсозлик экспертизаси

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel. 244-04-85, E-mail: davexpertiza@exat.uz,
devexpertiza@umail.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: INOYATOV MIRABBOS MIRKOMILOVICH

Sana: 23-01-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 86913

Obyekt nomi ««Реконструкция существующих зданий на территории завода с перепрофилированием под многоэтажные жилые дома с помещениями для торгово-бытового обслуживания, расположенные по улицам Кичик Бешагач и Абдуллы Каххара» (Korrektirovka) ishchi loyihasi»

Buyurtmachi - «CELEBRITY RESIDENTAL» MCHJ

Bosh loyihachi - «MODUL GROUP PLUS» MChJ

Litsenziya 2020 yil 25 dekabrda №AL-001557-sonli

Moliyalashtirish manbai - buyurtmachi o'z mablag'lari

Bosh pudratchi - buyurtmachi tomonidan aniqlanadi

Qurilish turi yangi qurilish

Murojaat raqami: № 79818

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. Toshkent shahar Qurilish bosh borqarmasining 2019 yil 25 yanvardagi 4982593-1-sonli ruxsatnomasi.
- 1.2. Toshkent shahar Qurilish bosh borqarmasi tomonidan 2019 yil 14 fevraldagi 319T-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.
- 1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2022 yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i (korrektirovka).
- 1.4. «ToshqurilishmateriallariLITI» MChJ tomonidan 2022 yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

- 2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra ishchi loyihaning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.
- 2.2. «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Toshkent viloyati filiali tomonidan 2021 yil 28 dekabrda berilgan 29668-sonli yig'ma ekspertiza xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

- 3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Normativ shamol bosimi - $W_0 = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Tumanning zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproq – qum-tosh aralashmasi.

Yer osti suvlari yer sathidan 4.2-5.1 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,7 m.

3.2. Bosh reja.

Ushbu ob'ekt Toshkent shahri Kichik beshyog'och va A.Qodiriy ko'chalarida joylashgan.

Ushbu turar-joy binosi 5 ta blok-seksiyadan va yer osti avtoturargohdan iborat bo'lib, seysmik choklar bilan bir-biridan ajratilgan.

3.3. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

Turar-joy binosi umumiy o'lchamlari 96.6x61.5m.

Blok-seksiya №1, №2 - bino o'n ikki qavatli, yerto'lali to'rtburchak shaklida bo'lib, o'lchamlari 26.3x18.3m. Yerto'la balandligi 3.02m, 1-qavat balandligi 4.83m, 2-qavat balandligi 3.6m, 3-12-qavatlar balandligi 3.3m.

Blok-seksiya №3 - bino o'n ikki qavatli, yerto'lali to'rtburchak shaklida bo'lib, o'lchamlari 23.6x18.3m. Yerto'la balandligi 3.02m, 1-qavat balandligi 4.83m, 2-qavat balandligi 3.6m, 3-12-qavatlar balandligi 3.3m.

Blok-seksiya №4 - bino o'n ikki qavatli, yerto'lali to'rtburchak shaklida bo'lib, o'lchamlari 18.3x34.3m. Yerto'la balandligi 3.02m, 1-qavat balandligi 4.83m, 2-qavat balandligi 3.6m, 3-12-qavatlar balandligi 3.3m.

Blok-seksiya №5 - bino o'n ikki qavatli, yerto'lali to'rtburchak shaklida bo'lib, o'lchamlari 18.3x26.3m. Yerto'la balandligi 3.02m, 1-qavat balandligi 4.83m, 2-qavat balandligi 3.6m, 3-12-qavatlar balandligi 3.3m.

Turar-joy binosining yerto'la qismida texnik xonalar, avtoturargoh joylashgan. Birinchi va ikkinchi qavatida savdo-maishiy xonalar joylashgan.

Yuqori qavatlarda xonadonlar joylashgan.

Avtoturargoh – yerto'lali, bir qavatli bo'lib, o'lchamlari 62.5x42.82m. Yerto'la balandligi 2.95m, 1-qavat balandligi 2.75m (poldan shiftgacha).

texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Qurilish maydoni - 3825.0 m²

Umumiy maydoni - 24538.4 m²

Qurilish hajmi - 86686.4 m³

Binoni tashqi pardozlash:

Poypesh – keramogranit bilan qoplangan.

Tashqi devorlar – qum-suvoq, fasad emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Xonadonlarni ichki pardozlash:

Devorlar – suv emulsiyasi bilan qoplangan, keramik plita.

Shiftlar –suv emulsiyasi bilan bo'yalgan, plastik reyka.

Pollar – beton, laminat, itallogranit, keramik plitalar.

Derazalar – alyumin va PVX profillardan iborat.

Eshiklar – MDF, metall.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Binolarning konstruktiv yechimi – qattqlik diafragmasi bo'lgan, monolit temir-beton karkas.

Poydevori – qalinligi 1200mm bo'lgan monolitli temirbeton plita.

Poydevor devorlari – 400 mm qalinlikdagi monolitli temirbeton.

Devorlar – qalinlikdagi 380mm bo'lgan g'ishtdan iborat.

Pardevorlar - 120 mm qalinlikdagi g'isht.

Qattqlik diafragmasi - monolit temirbeton.

Ustun va rigellar – monolit temirbeton.

Orayopma – qalinligi 180mm bo'lgan yig'ma g'ovakli temirbeton plitalar.

Zinapoyalar - monolitli temirbeton.

Tom qoplama – metall konstruksiyalar bo'ylab profnastil.

3.5. Yong'in xavfsizligi.

Yong'iniga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong'in xavf turi – F1.3.

Konstruktiv yong'in xavf turi – SO.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2019 yil 2 dekabrda 31-2543/A-sonli xulosa).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi, Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining ijobiy xulosasini olishi lozim.

Bundan tashqari, buyurtmachi tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish uchun tegishli tashkilotlardan texnik shartlarni olishi va shu asosida binoning ichki muhandislik tarmoqlarini albomlarini ishlab chiqishi zarur. Ishlab chiqilgan ishchi loyihani o'rnatilgan tartibda ekspertiza ko'rigiga taqdim etishi zarur.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishinni ta'minlaydi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. «Реконструкция существующих зданий на территории завода с перепрофилированием под многоэтажные жилые дома с помещениями для торгово-бытового обслуживания, расположенные по улицам Кичик Бешагач и Абдуллы Каххара» (Korrektirovka) ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. Ushbu yig'ma ekspertiza xulosasi taqdim qilinishi bilan, 2021 yil 28 dekabrda berilgan 29668-sonli yig'ma ekspertiza xulosasi bekor qilinadi.

Ekspert mutaxassis: Yunusov A., Shakurov R.F.

Bosh mutaxassis: AVAZOV XASHIMJON TURABAEVICH